

Date: 19th November-2024

**XORIJIY TILLARNI MUKAMMAL O'RGANISH VA MURAKKAB SO'ZLARNI
ESLAB QOLISH USLUBLARI**

Sharapova Dildora Baxtiyarovna

International school of finance and technology science instituti o'qituvchisi ,
Psixologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), sharapovad@isft.uz

Payziyeva Irodaxon

International school of finance and technology science instituti Xorijiy til va
adabiyot yo'nalihi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi, payziyevairoda73@gmail.com

Shoynazarova Muhabbat

International school of finance and technology science instituti Xorijiy til va
adabiyot yo'nalihi, 1-bosqich, 24-XTA-01 guruhi talabasi,

muhabbatshoynazarova6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tillardagi murakkab so'zlarni tez o'rganish va eslab qolish metodlari, turli texnologiyalar kundalik hayotda qo'llash usullari, metodlardan samarali foydalanishning amaliy ahamiyatini o'rganishga bag'ishlanadi. Maqolada metodlar orqali xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, ravon so'zlasha olish qobiliyatini fandagi tajribalar asosida mukammal eslab qolish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, maxsus usul, murakkab so'zlar, metodika, puxta o'rganish, ravon so'zlasha olish, mukammal eslab qolish.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению методов быстрого изучения и запоминания сложных слов на иностранных языках, методам использования различных технологий в повседневной жизни, а также практической значимости эффективного использования методов. В статье уделяется внимание вопросам основательного овладения иностранными языками методами, совершенным запоминанием, умением бегло говорить на основе опыта научной деятельности.

Ключевые слова: иностранный язык, специальный метод, сложные слова, методика, внимательное изучение, умение бегло говорить, безупречное запоминание.

Annotation. This article is devoted to the study of methods for quickly learning and memorizing complex words in foreign languages, methods of using various technologies in everyday life, as well as the practical significance of the effective use of methods. The article pays attention to the issues of thorough mastery of foreign languages by methods, perfect memorization, and the ability to speak fluently based on the experience of scientific activity.

Key words: foreign language, special method, complex words, methodology, careful study, ability to speak fluently, perfect memorization.

Kirish. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan globallashuv zamonida xorijiy tillarni puxta o'rgangan yosh kadrlarga bo'lган talab kun sayin ortib bormoqda. Bu esa yoshlar

Date: 19th November-2024



orasida xorijiy tillarga qiziquvchilarning soni ortishiga va chet tillarini o'rganishning keng tarqalishiga olib kelmoqda. Chet tillarini mukammal o'rganayotgan va o'zi o'rganayotgan xorijiy tilda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash, xorijiy tillarini o'rganish orqali dunyo xalqlari madaniyatiga kirib boradigan kadrlarni tayyorlash yurtimiz ta'lif islohotlarining asosiy maqsad va vazifalari aylsnib ulgurdi. Ammo o'quvchi yoshlar tomonidan xorijiy tillarni o'rganish jarayonida bir qator xatolarga yo'l qo'yishi yohud ba'zi muammoli holatlarga duch kelish sababli ularning yangi o'rganilayotgan tillarga bo'lgan ishtiyoqining yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

Xorijiy tillarni o'rganish insonga yangi madaniyat, bilim va yangi do'stlar bilan tanishish, muloqotga kirishish hamda dunyoqarashini o'stirishda yordam beruvchi vosita sanaladi. Ammo yangi tillarni o'rganish va eslab qolish ancha murakkab jarayon. Shu sababdan ham mazkur qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi qiyinchiliklar til o'rganishga bo'lgan ixlosni pasayishiga sababchi bo'lib qolishi mumkin.

Sir emas-ki, dunyo un sayin rivojlanib bormoqda. Insonlarda dunyoni va uning bilimlarini o'rganishga qiziqish ortmoqda. Millatlar va insonlarning o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari mavjud. Til o'rganish esa insonni boshqa madaniyatlar bilan ham yaqinlashtiradi. Til o'rganishdagi eng asosiy vosita esa xohish, istak va ilk qadamni tashlashdir. Afsuski, ko'pchilikda ilk qadamni tashlash omili bo'lgan qo'rquv omilini yengish ko'nikmasi mavjud emas. Bu esa insonning hayot tarsi, madaniyati va tarbiyasi bilan bog'liq. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda chet tillarini o'rganuvchilarning asosiy qismini 17-35 yoshdagilar tashkil qiladi. Unda katta yoshdagi o'rganmaydimi, degan o'rinli savol tug'iladi. Odatda yoshi katta insonlar til o'rganish bilan bog'liq muammosini xotira zaifligi qo'rquvi bilan ifodalab, yangi til o'rganish sari qadam tashlolmaydi.

Til bir tomonda tibbiyotga o'xshaydi – amaliyot bilan birga rivojlantiriladi. Tilni passiv tarzda o'rganish katta natija bermaydi. Masalan til o'rganishni 17 yoshida boshlagan kishi u bilan passiv, ya'ni, amaliyotda foydalanmas ekan, kerakli ko'nikma va malakaga ega bo'lmaydi. Albatta, til o'rganishda olingen bilimning o'zi yetarli emas. Ba'zilar tilni shunchaki uyqudan avval yuzta so'zni yodlash va ularni takrorlash deb tushunadi. Lekin o'sha so'zlar aktiv fazada ishlatilmas ekan, bu amaliyot natija bermaydi. Til o'rganishda dars jarayonidan mustaqil nutqdan foydalanish, o'z ustida ko'proq ishslash orqali olinadigan natijalar yuqori samaradorlikka ega. Shuningdek, tilni zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'rganish, ya'ni, nafaqat kitob yoki qo'llanmalardan o'rganish balki boshqa ta'lif usullaridan ham foydalanish o'rganuvchining zerikishlariga berham beruvchi vosita vazifasini o'taydi.

O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rgatish yuzasidan ta'lif tizimida tub burilish yasaldi. Chet tillarini bilishga intilish ko'rsatkichining kun sayin ortayotganiga ham bugungi kun til o'rganishga qaratilayotgan siyosatning optimalligi bilan aloqador. Dono xalqimiz, "Til bilgan – el biladi", deb bejizga aytmagan. Shu o'rinda buyuk bobokalonimiz Abu Nasr Farobiyning ham juda ko'p til bilganini e'tirof etish o'rinli. Yoki Mahmud Qoshg'ariyning bir necha tillarni bilgan holatda ularni qiyosiy o'rganish darajasida

Date: 19th November-2024



bo’lganligi ham til o’rganishning bizga buyuk ajdodlarimizdan meros ekanligini ko’rsatadi. Ushbu mulohazalar asnosida bugungi kun yoshlariga yaratilayotgan imkoniyatlardan keng foydalanish, ularga qo’yilayotgan talablar doirasida chet tillarini puxta egallahash, zamonaviy texnologiyalar orqali chet tillarini o’rganish, dunyo hamjamiyatida vatanimiz ravnaqini kengaytirish dolzarb va muhim hisoblanadi.

Murakkab so’zlarni eslab qolish usullari. Bunda mnemonikadan foydalanish mumkin. Bu o’xshashlik bog’liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma’lumotlarni eslab qolish uchun maxsus uslublar to’plamidir. Bunda yangi, noma’lum bo’lgan tushunchalar inson ongida allqachon mavjud bo’lgan ma’lumotlar bilan bog’lanadi va natijada yangi axborotni eslab qolish osonlashadi. Donishmandlar aytganidek, “Boshqa tilni o’rganish faqatgina boshqa so’zlarni emas, balki narsalar haqida boshqacha fikrlashni o’rganish hamdir”. Bu tushunchalarni tez va oson o’zlashtira olish orqali so’z yodlash, amalda qo’llay olish ko’nikmalari ortib boradi. Xorijiy tilda so’z yodlash, ya’ni, uzun so’zlarni eslab qolish ko’pincha qiyin bo’lib, ko’p vaqt va mehnat talab qiladi. Biroq bir qancha usullar va texnikalar yordamida bu jarayonni soddalashtirish va yodlashni samarali olib borish mumkin.

Ko’pincha murakkab so’zlar bir necha qismdan iborat bo’ladi, ya’ni prefiks, ildiz va suffiks kabi qismlar mavjud bo’lishi mumkin. So’zning bu qismlarini tahlil qilish va alohida ajratib o’rganish orqali uning ma’nosini tushunish osonlashadi. Misol uchun inliz tilidagi “unbelievable” so’zini “un” – inkor “believe” – ishonmoq qismlariga ajratish mumkin. Shunda bu so’zning “ishoning bo’lmayigan” degan ma’noni anglatishini o’rganish va eslab qolish oson bo’ladi. So’zlarni eslab qolishning yana bir qator usullari mavjud:

1 – usul. Mnemonik usul. Chet tillardagi so’zlarni yodlashning eng samarali usullaridan biri. Bu usul orqali so’zlarni vizual yodlash, odatiy eslashdan ko’ra tezroq eslash va ular uzoq vaqt davomida xotirada saqlashga erishish mumkin.

2 – usul. Brikmalar usuli . Odatda so’zni yodlashdan ko’ra uni so’z birikmasi tarzida yodlash yaxshi natija beradi. Bu usulda birgina so’zning o’zini emas, balki bir necha so’zni yodlash, eslab qolish va uni ishlatish o’rni haqida ham bilib olish mumkin.

3 – usul. Zamonaviy usul. Hozirda ingliz tilini o’rganish uchun turli xildagi ilovalar, dasturlar juda ko’p. jumladan, mamlakatimizda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan ishlab chiqilgan “Ibrat farzandlari” ilovasidan foydalanish orqali juda ko’p tillarni o’rganish mumkin. Shuningdek, mazkur ilovalar va dasturlardan turli yerlarda foydalanish uchun ham qulay, masalan, transportda ketayotganda ushbu ilovalardan foydalanish yoki quloqchin yordamida so’zlarni eshitib ketish mumkin. Bu usuldan mutazam foydalanish orqali so’zlarni eslab qolish qobiliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda murakkab so’zlarni yodlash va eslab qolish jarayoni doim ham oson emas, lekin yuqorida ko’rsatilgan uslublardan foydalanish – til o’rganish jarayonni ancha yengillashtirishga xizmat qiladi. Albatta, har bir inson individual va o’ziga mos keladigan uslubni tanlashi mumkin. Yodlash va eslab qolish jarayonini qulay va qiziqarli qilgan holda til o’rganishda katta yutuqlarga erishish mumkin.

Date: 19th November-2024

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
2. “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi “Xorijiy tillarni o'qitishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 312-sonli qarori
4. Jalolov J. “Chet til o'qitish metodikasi”, Toshkent 2012
5. On the use of modern pedagogical technologies and general grammar in the teaching of English . Science and Education , 2(8),718-720
6. METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH . WORLD BULLETIN OF SOCIAL SCIENCES, 1(1), 23-25
7. Baxtiyarovna, S. D. (2022). Xotira: mustahkamlash yo'llari, usullari va vositalari. Scientific Impulse, 1(4), 328-333.
8. Baxtiyarovna, S. D., Gavhar, G., & Jasmina, N. (2022). Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuv. Scientific Impulse, 1(3), 385-388.
9. Baxtiyarovna, S. D. Shukurullo oglu, NJ (2022). Tibbiyot xodimlarining hissiy-emotsional xususiyatlari. Scientific Impulse, 1(3), 439-443.
10. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. К. (2022). Мактабгача ёшдаги болаларнинг психофизиологик ривожланиши. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(5), 681-689.
11. Ziynat, O., & Nafosat, S. (2023). Psixologiyada ong va ong haqidagi nazariyalar. Scientific Impulse, 1(8), 857-860.